

**SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARIDA IJTIMOIIY ETNIK VA
KASB-HUNAR OMILLARINING AKS ETISHI**

Kenjayeva Iroda Alisherovna

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sirdaryo viloyati toponimlarining shakllanish omillari, ularning tarixiy, etnik, kasbiy va ijtimoiy-iqtisodiy asoslari tahlil qilingan. Viloyatdagi ba'zi toponimlarning kelib chiqishi, semantik xususiyatlari va tarixiy taraqqiyot bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, joy nomlarining hududning etnik tarkibi, aholi mashg'uloti va tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari Sirdaryo viloyati toponimlarining tarixiy-lisoniy xususiyatlarini aniqlash, ularning ilmiy tasnifini boyitish hamda O'zbekiston toponimikasini o'rganishga oid tadqiqotlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Sirdaryo viloyati, toponim, toponimika, etnotoponim, kasb-hunar nomlari, joy nomlari, tarixiy toponimlar.

Toponimlar xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy hayoti va etnomadaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim lisoniy birliklardir. Joy nomlarining shakllanishida tabiiy-geografik omillar bilan bir qatorda aholi mashg'uloti, kasb-hunari, etnik tarkibi hamda siyosiy-ma'muriy o'zgarishlar muhim rol o'ynaydi. Shu sababli toponimlarni o'rganish orqali muayyan hududning tarixiy rivojlanishi, aholi joylashuvi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida qimmatli ilmiy xulosalarga kelish mumkin. Sirdaryo viloyati toponimik tizimida kasb-hunar bilan bog'liq

(*Energetiklar*, *Ko'nchi*), etnik tarkibni aks ettiruvchi (*Koreyslar*, *Turkmanovul*, *Turkovul*) hamda tarixiy-siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllangan (*Dehqonobod*) joy nomlari alohida o'rin tutadi. Bu toponimlar nafaqat hududning tarixiy rivojlanish bosqichlarini, balki aholining xo'jalik faoliyati, milliy tarkibi va ijtimoiy munosabatlarini ham o'zida mujassam etadi.

Sirdaryo viloyatida joy nomlari ko'pincha hududning tabiiy xususiyatlari, tarixiy voqealari va aholining turmush tarzi bilan bog'liq holda shakllangan. Bunday nomlar orqali o'sha joyning o'tmishi, geografik joylashuvi hamda xalqning tasavvurlari haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Shunday toponimlardan biri – Energetiklar bo'lib, u Shirin shahridagi xiyobonning nomi. Bu nom energetika sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar bilan bog'liq. *Energetiklar* – energetika mutaxassislari. Turli ko'rinishdagi energiya ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar. Mazkur nom shu hududda energetika sohasi rivojlanganini va shu kasb egalari yashaganini bildiradi.

Shuningdek, *Ko'nchi* toponimi Guliston tumanidagi qadimgi qishloq va bozor nomi sifatida uchraydi. “*Ko'nchi*” so'zi teriga ishlov beruvchi hunarmand ma'nosini anglatadi. Bunday hunarmandlar hayvon terisini maxsus usullar bilan qayta ishlab, undan oyoq kiyimlar, ot anjomlari va turli charm mahsulotlarini tayyorlashgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, ushbu hududda qadimda asosan terichilik bilan shug'ullanuvchi ustalar yashagan. Shu sababli qishloq ham ularning kasbiga mos ravishda “*Ko'nchi*” deb atalgan. *Ko'nchi* – terichi, *ko'nchilik* esa teriga ishlov berish hunari ma'nosini bildiradi.

Joy nomlarida yana bir muhim xususiyat – ularning millat yoki elat nomlari bilan bog'liq holda qo'yilishidir. Bunday holatni Sirdaryo viloyatining ayrim

hududlarida uchratish mumkin. Masalan, Boyovut va Guliston tumanlaridagi ayrim toponimlar ma'lum bir millat nomi bilan atalib, hududda yashagan, yashab kelayotgan aholi tarkibi haqida ma'lumot beradi. Sirdaryo tumanidagi ayrim mahalla va qabriston nomlari tarixiy hamda etnik jarayon bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, 1920-yillarda respublika hududiga ko'chib kelgan koreys millatiga mansub aholi bu hududda sezilarli darajada ko'pchilikni tashkil etgan. Keyinchalik, 1960-1970-yillarda Mirzacho'l hududini o'zlashtirish jarayonida ham koreys millatiga mansub aholi faol ishtirok etgan. Ularning shu yerda yashab qolishi natijasida ayrim mahalla va qabristonlarga ham aynan *Koreyslar* nomi berilgan. Bu esa hudud toponimikasida etnik tarkibning ta'siri yaqqol ko'rinishini ifodalaydi.

Turkmanovul Boyovut tumanidagi qishloqlardan birining nomi. Mazkur nom shu hududda ma'lum bir davrda turkman millatiga mansub aholi yashaganligi bilan bog'liq holda shakllangan. Xuddi shunday *Turkovul* nomi ham Guliston tumanidagi aholi punktlaridan biriga berilgan bo'lib, bu yerda ham turk millatiga mansub aholi istiqomat qilgan. Ushbu nom *turk* va *ovul* leksemalarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lib, "*turklar yashaydigan qishloq*" ma'nosini anglatib keladi.

Dehqonobod – Guliston tumanining ma'muriy markazi. Mazkur hudud ham ma'muriy o'zgarishlarni boshdan kechirgan hududlardan biri hisoblanadi. Dastlab, 1886-yili Rossiyaning Poltava hamda Tver guberniyalaridan podsho hukumati tomonidan ko'chirib keltirilgan rus aholisi bu yerda istiqomat qila boshlagan. 1887-yildan e'tiboran aholi punkti Romanovlar sulolasi sharafiga *Romanovsk* deb nomlangan. Bu nom o'sha davrdagi siyosiy tuzum va hukmron sulolaning nufuzini aks ettiruvchi toponim sifatida shakllangan. Keyinchalik hududda sho'rolar

hokimiyati o'rnatilgach, joy nomlari ham yangi mafkuraga mos ravishda o'zgartirila boshlandi. Shu jarayonda 1923-yilda ushbu aholi maskaniga *Krestyansk* nomi berilgan bo'lib, bu nom 1992-yilgacha amal qilgan. Mustaqillik yillarida esa milliy qadriyatlar va tarixiy ildizlarni tiklash jarayoni doirasida mazkur shahar nomi rasmiy-ma'muriy ravishda *Dehqonobod* deb o'zgartirilgan.

Dehqonobod toponimi ikki tarkibiy qismdan iborat: *dehqon* va *obod*. *Dehqon* so'zi agrar sohada faoliyat yurituvchi, yerga egalik qiluvchi hamda qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi shaxsni anglatadi. Ushbu tushuncha tarixiy jihatdan ibtidoiy jamoa tuzumining parchalanishi va mehnat taqsimotining yuzaga kelishi natijasida shakllangan. Aynan shu jarayonlar natijasida dehqonchilik mustaqil xo'jalik turi sifatida rivoj topgan.

Dehqonobod nomi bilan ataluvchi qishloqlar hozirgi kunda Boyovut va Mirzaobod tumanlarida uchraydi. Shuningdek, Mirzaobod va Sirdaryo tumanlarida ham ayrim mahallalar aynan shu nom bilan yuritiladi. Bunday holat mazkur toponimning hududiy jihatdan keng tarqalganligini ko'rsatadi.

Manbalarda qayd etilishicha, O'rta Osiyoda dastlab jamoa tizimidan ajralib chiqqan yer egalari, ba'zan qishloq oqsoqollari ham "dehqon" deb ataladi. Ular odatda o'zlariga tegishli, devor bilan o'ralgan mustahkam qo'rg'onlariga ega bo'lishgan. O'rta asrlarga kelib dehqonlar agrar iqtisodiyotining asosiy tayanch kuchiga aylanadi. Professor Z.Do'simovning qayd etishicha, XI–XII asrlardan keyin ekin ekish bilan shug'ullanuvchi aholining deyarli barchasi *dehqon* deb atalgan. Keyingi davrlarda, xususan, Xiva xonligida katta yer egalarining yerida yollanib ishlovchi mardikorlar ham dehqon sifatida talqin qilingan.

Hozirgi zamon talqinida esa O'zbekistonda dehqon tushunchasi yanada aniq iqtisodiy mazmun kasb etgan bo'lib, u davlatdan uzoq muddatga (odatda 10–50 yilgacha) yer ijaraga olib, yirik fermer xo'jaligini yurituvchi shaxsni anglatadi.

Obod komponenti joy nomlari tarkibida keng qo'llanilib, “obodonlashtirilgan”, “o'zlashtirilgan”, “gullab-yashnagan, go'zal maskan” kabi ma'nolarni bildiradi. Ayrim ilmiy qarashlarga ko'ra, “*obod*” so'zi “*ob*” – “*suv*” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, suv manbalari mavjud va yashash uchun qulay hududni ifodalagan.

Joy nomlari xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Ularni ilmiy asosda o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, geografiya va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy qadriyat, urf-odatlar va an'analarni tiklash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Ushbu jarayonda jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotirani qayta tiklashga alohida e'tibor qaratildi. Natijada milliy tuyg'ularni ifoda etuvchi ma'naviy meros qayta jonlantirilib, jamiyat hayotida uning ahamiyati yanada ortdi. Shu bilan birga tarixiy atamalarni o'rganish, ularni ilmiy asosda qayta tiklash va amaliyotga joriy etish borasida ham davlat miqyosida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Xususan, mustabid tuzum mafkurasi ta'sirida shakllangan va uning targ'ibotiga xizmat qilgan ayrim atamalarni qayta ko'rib chiqish, ularni zamonaviy milliy g'oyalar bilan uyg'unlashtirish hamda muqobil ravishda milliy ruhni aks ettiruvchi yangi atamalar bilan almashtirish borasida izchil chora-tadbirlar olib borildi. Atamalarning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish muhim ahamiyat kasb etdi. Joy nomlarini belgilash, ularni o'zgartirish, tarixiy

asosda qayta tiklash bilan bog'liq mezon va tamoyillar ishlab chiqildi. Shuningdek, muhim tarixiy shaxslar nomini abadiylashtirish, ularni geografik obyektlar nomlariga berish yuzasidan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgani ushbu sohada erishilgan yutuqlardan biri sifatida baholanadi. Umuman olganda, Sirdaryo viloyati toponimlari tilshunoslik, tarix, etnologiya va geografiya fanlari kesishgan nuqtada o'rganiladigan muhim ilmiy obyekt bo'lib, ularning etimologik va tarixiy tahlili hududning etnomadaniy taraqqiyoti, aholi tarkibi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini yoritishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Murzayev E. M. Ocherki toponimiki. – M., 1974.
2. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. Qashqadaryo qishloqlari nomining tadqiqi. – T.: Muharrir, 2009.
3. Ermatov I. Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug'ati. "BOOKMANY PRINT" Toshkent – 2024.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш томлик, V том. – Тошкент, 2006.
5. Qorayev S. Toponimika. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006.